

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA YUQORI SINF
O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH****Olimjon Eshimbetov**

Ajiniyoz nomidagi NDPI katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15115981>

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lif mifik tablari ona tili darslarida 10-11-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Nutq, nutq odobi, so'zlashuv uslubi, fikrlash, bilim, ko'nikma, malaka.

**DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES OF HIGHER-GRADE STUDENTS IN
MOTHER LANGUAGE LESSONS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION
SCHOOLS**

Abstract. Forms, methods and means of developing speech competencies of 10-11th-grade students in mother tongue lessons of general secondary education schools.

Keywords: Speech, speech etiquette, conversational style, thinking, knowledge, skills, competence.

**РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТАРШИХ КЛАССОВ НА УРОКАХ
РОДНОГО ЯЗЫКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ**

Аннотация. Формы, методы и средства развития речевых компетенций учащихся 10–11 классов на уроках родного языка в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Речь, речевой этикет, стиль говорения, мышление, знания, умения, компетенции.

Ajdodlarimiz azaldan fikrga mantiqiy yondashib aniq, to'g'ri, ta'sirli, tushunarli so'zlashga alohida e'tibor bergenlar. So'zning ma'nosiga diqqat qilish, ravon gapira olish, so'zlovchining nutqini hurmat bilan tinglash, o'ylab fikr-mulohaza qilish, rost so'zlash, ifodalni o'qish, o'z munosabatini erkin ifodalash, suhbat mavzusiga aloqador bo'limgan fikrlarni aytmaslik kabilarga rioya qilish nutq odobining asosiy talablari sanalgan.

Nutqiy faoliyat jarayonidagi bu kabi odatiy talablar xalqimizning qadrlashga loyiq an'anasi sifatida yillar davomida takomillashib kelmoqda. Nutqiy faoliyat turlari Kaykovus, Farobi, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy asarlarining mazmun-mohiyatiga singdirilgan.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida keltirilgan "Tilingni yaxshi hunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il.

Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatg‘il, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. SHuning uchun behuda so‘zlamag‘ilki, foydasizdir” [9] – degan fikrlari e’tiborlidir. O‘quvchilar ona tili darslarida muloyim so‘zlashni, so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashni o‘rganar ekan, ularda fikr tarkibi va qurilishi mazmundor va mantiqli so‘zlar bilan boyib boradi.

Farobiy foydali so‘zlashning ta’sirini quyidagicha izohlaydi: “...so‘zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi. YAxshi so‘z, ya’ni nutq kishiga obro‘ va baxt keltiradi. Ezgu so‘zli bo‘l:

So‘zlar ancha mujibi g‘aromat bo‘lmoq,

Til zabitidadur anga salomat bo‘lmoq” [4].

Shirinsuxanlik bilan murojaat qilish insonga obro‘, baxt keltiradi. O‘quvchilar yillar davomida bu xususiyatni o‘zida mujassam qilib borishi ularda insoniy fazilatlar, nutq madaniyati rivojining asosi bo‘ladi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’kidlashicha: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyanilgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur” [3]. Insonlarning jamiyatga, o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, yuksak salohiyatni egallahda tafakkurning, fikrning ijobiy ta’siri sezilarli darajadadir.

So‘nggi yillarda mustaqil fikrlash yoshlari tarbiyasining negizi sifatida mamlakatimizdagi qonun va farmonlar mazmunida o‘z aksini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonida “...o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish” [1.] vazifalari ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularni shaxs sifatida shakllantirishga, hayotiy faoliyatida tarbiyaviy, madaniy, ma’rifiy jihatdan yondashib, ongli ravishda faol ishtirokini ta’minalashga asos bo‘ladi.

Uzluksiz ona tili ta’limida nutqiy faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa ham, 10-11-sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi etarli darajada takomillashtirilmagan.

SH.YUsupovaning dissertatsiyasida ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bo‘yicha “SHarhlash usuli”ni qo‘llashdan turli maqsadlar ko‘zlanishi nazarda

tutiladi. ”1. SHarhlash ona tili bo‘yicha o‘tilgan nazariy ma’lumotlarni idrok qilishga yordam beradi. 2. SHarhlash nazariy ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashni bildiradi. 3. Og‘zaki nutqni o‘sirishga yordam beradi. 4. Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi. 5. Butun dars jarayonida o‘quvchilarda nazariy ma’lumotlar ta’kidlanadi”. [18]

Metodist olimaning fikrlariga qo‘shilgan holda, quyidagicha izoh berish mumkinki, ona tili darslarida sharhlash natijasida to‘g‘ri so‘zlash va to‘g‘ri yozish qoidalariga amal qilganligi sinovdan o‘tadi. O‘quvchilarning talaffuzi, nutq texnikasiga e’tibor berishi orqali, olgan bilimini amalda og‘zaki nutqida so‘zlay olishi muhim.

SH.YULDASHEVANING tadqiqot ishida o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini topshiriqlar orqali rivojlantirish tadqiq qilingan [19]. O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish mazmunida quyidagilar belgilangan:

1.Nutqiy-kommunikativ malaka, turli nutqiy vaziyatlarda fikr bayon eta olish, fikr almashish, eshitilgan materialni idrok etish, o‘qish orqali axborot olish, fikrlarni yozma bayon qila olish malakalari.

2.Til vositalarini nutqda qo‘llash uchun o‘zbek tili tizimidagi zarur bilimlarni (nutq tovushlaridan to muomalaning eng kichik birligi – gapgacha) o‘zlashtirish, ya’ni grammatik malaka.

3.O‘zbek xalqining milliy xususiyatlari, madaniyati hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali hosil qilinadigan malaka” [20].

Ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning grammatik malakalarini hosil qilish, nutq jarayonida til vositalaridan o‘rinli foydalanish, xalqimizning yuksak madaniyati, milliy urf-odatlarini mustahkamlash joiz. Bu vositalar orqali erkin muloqot qilish, nutqiy vaziyatlarda muomala madaniyatiga rioya qilish ko‘nikmalar, savodli og‘zaki va yozma nutqni ifoda qilish shakllanib boradi.

Nutqiy kompetensiyalarning tarkibiy komponentlarini boshlang‘ich sinf ona tili darslarda shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, o‘quvchilar tayanch sinflarga o‘tganda ularning tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish kompetensiyalari ta’lim bosqichlarida yillar davomida rivojlanib boradi. Yillar davomida ona tili mashg‘ulotlarida olgan bilim va ko‘nikmalariga tayangan holda, turli matn turlarini tuzishga hamda xatosiz yozishga etarlicha bilimga ega bo‘ladilar. SHu bilan birga, davlat tilida ish yuritish hujjatlarini mustaqil holda namunaga qaramasdan mustaqil yozish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

D.Toshxo‘jaeva tomonidan darsdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlar orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari o‘sirish muammolari o‘rganilgan [16].

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish darsdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi, chunki maktablarda o'tkaziladigan tadbirlarda o'z tengquri tomonidan ifodali tarzda yoddan o'qib eshittirilgan g'azal, shohbaytlar va she'rlar ularning tinglab tushunish, so'zlash va eshitish kompetensiyalarining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

G'. Hamraevning ilmiy-tadqiqot ishida "Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o'qitish o'qituvchining ixtiyoriga to'liq topshirib qo'yilsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikmasi bir xil bo'lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa, bir xillikni taqozo etadi. SHu ma'noda, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo'lib qoladi" [22] -deyiladi. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, asosan, ona tili o'qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan xarakterlanadi. Tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Darsda o'qituvchining, birinchi galdeg'i, vazifalaridan biri, o'quvchida nutqiy ko'nikmalar hosil bo'lishini nazorat qilish, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning o'sish darajalarining "oqsayotganini" aniqlash va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatishdir. O'quvchilarga so'zlarning imlosi bo'yicha imlo lug'at bilan ishlashni, ko'chirib yozish mashqlarini bajarishda o'rganib, eslab qolishni uqtirish, so'zlarning ma'noviy strukturasida izohli lug'atlar bilan ishlash, omonim va sinonim lug'atlar bilan ishlashni o'rgatishdir. Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, o'qish va yozish mashqlariga alohida urg'u bersa, nutqiy kompetensiyalar takomillashadi. Albatta, bu jarayon o'qituvchidan bирgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qo'shimcha ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni talab qiladi.

O'quvchilar boshlang'ich sinflardan boshlab mustaqil ta'limni yo'lga qo'yib shakllantirib borar ekan, keyinchalik 10-11-sinf o'quvchilari bo'lganlarida ularning so'zlashi, turli vaziyatlardan shirinsuxanlik bilan chiga olish qobiliyatları, o'ylab, mulohaza qilib yuritish ko'nikmalari takomillashib boradi. 10-11-sinf o'quvchilari vatanparvarlik, insonparvarlik, odamiylik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik kabi qator fazilatlar ifodalangan badiiy asarlarni va she'rlarni o'qib tahlil qilishsa, ularning nutqi sezilarli darajada rivojlanadi. Demak, nutqiy kompetensiyalar darsliklarda, o'quv qo'llanmalar va ilmiy-tadqiqot ishlarida nutq, nutqiy faoliyat turlari, nutq malakalari va nutqiy ko'nikmalar deb nomlangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy faoliyatning o'qish va yozish ko'nikmalari ularning yoshi va aqliy rivojining takomilini inobatga olgan holda, bosqichma-bosqich shakllantirilib boriladi. YOshlik chog'laridan boshlab berilayotgan ilk saboqlarda o'qish va yozish ko'nikmalari shakllantirilayotgan asosiy bilimlarning poydevoriga jiddiylik bilan egallanishi va nazoratga olinishi zaruriy omildir.

Ona tilini o'qitishda bu malakalar keyinchalik yuqori sinflarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlanirish uchun o'z ijobiy natijasini beradigan asosiy zamin vazifasini o'taydi.

A.A.Abduaazizovning "Tilshunoslik nazariyasiga kirish" darsligida nutq shakllarini rivojlantirishda qo'llaniladigan vositalar haqida mulohaza yuritilgan. "Nutq – bu tilning va undagi belgilarning barcha qo'llanilish holatlarini qamrab oladi. YOZMA shaklda o'qib berish uchun tayyorlangan roman, qissa, hikoya va h.k. nutqqa tegishlidir" [2.]. Nutqning rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi bu vositalar o'quvchining aqliy kamol topishi bilan birga, mustaqil fikrlashiga va ijodiy yondashuv asosida fikrini erkin bayon qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aytilgan.

Psixolog N.I.Jinkinning ta'kidlashicha, "Nutq – intellektni rivojlantiruvchi kanal. Til qancha erta o'zlashtirilsa, bilimlar shuncha oson va to'liq o'zlashtiriladi" [7]. Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar turlicha talqin qilingan. Bizning fikrimizcha, nutqning belgilangan qoida va talab asosida rivojlanishi bilimlar zaxirasining paydo bo'lishida antrotsentrik faoliyatini namoyon qiladi. Fikrlar xilma-xilligi bilimlar vositasida bosqichma-bosqich shakllanadi. Rus olimi L.S.Vigotskiy botiniy nutqdagi fikrning so'zga aylanishini "tafakkur grammatikasining so'z grammatikasiga aylanishi" deb ta'riflaydi [14]. Darhaqiqat, fikr sayqallanib etilgan tafakkur bilan tashqi nutqqa aylanadi.

O'quvchilar oila davrasida milliy tilda gapirishi, shevaga xos so'zlarni erkin ishlatishi tabiiy hol. Ular darsdan keyin tashkil qilinadigan to'garaklarda adabiy tilda gapiradilar, fikrini adabiy tilda tushuntirib, ba'zi o'rnlarda izohlab etkazadi. Biroq bayramlarda, tadbirdorda ham turli xududdan kelgan va boshqa millat vakillari ishtirokchilari qatnashayotganligini inobatga olib, adabiy tilda gapirishlari to'g'ri deb o'yaymiz. SHuning uchun ona tili darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishga, shular negizida kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'quvchining o'rgangan bilimlarini tanish vaziyatlarda qo'llay olishi yoki o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyati; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; "Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmui bo'lib, bolalarning o'ziga xos rivojlanish sohalarini birlashtiruvchi tushunchadir. Bu kompetensiyalar bolalarning ma'nан mukammal shakllanishi va intellektual rivojlanishi uchun asos bo'ladi" [6].

Kompetensiya – o'quvchilarning muayyan bir sohada sermahsul faoliyatini mustaqil olib borishi uchun oldindan tayyorlanadigan zaruriy talabdir.

"Kompetensiya" termini fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarda qo'llangan. Inglizcha "sompotense" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat,

layoqatlilik darajasini anglatadi [12]. Kompetensiya so‘zining ma’nosiga qator izohlar va ta’riflar berilgan, tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan.

Kompetensiya – (lot, compete – munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar, shaxsning biron bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darjasи [11].

N.SH.Turdiev va qator olimlar tomonidan tuzilgan “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari” nomli qo‘llanmasida “kompetentlilik”, “kompetensiya” tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlari: bilimlar majmuining amalda qo‘llanilishi, shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o‘lchovi, muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo‘lga kiritish layoqati, shaxsning professional faoliyatini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o‘quv, bilim, tajribalar majmui, shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan emotsiyonal iroda kuchi [17] sanab o‘tilgan. Kompetensiyalar egallangan bilimlar zamirida ko‘nikmalar hosil qilinadi va ko‘nikmalar malakaga aylanadi. Kompetensiya bilim, ko‘nikma, malakalarning yuqori darjasи, ya’ni layoqat sanaladi. Demak, kompetensiyalar ma’lum bosqichlar davomida amaliyotga tatbiq etilgan ilmlar jamlanmasidir.

V.Xutmaxer Evropa kengashi tomonidan qabul qilingan “evropa yoshlari ega bo‘lishi kerak bo‘lgan” beshta tayanch kompetensiyalarning ta’riflarini keltiradi. Bu kompetensiyalarning uchinchisi quyidagilardan iborat: og‘zaki va yozma muloqotga kirishish bilan bog‘liq kompetensiyalar. Bunday kompetensiyalarga ega bo‘lmagan insonlar ijtimoiy jihatdan izolyasiyalanib qolish xavfiga duchor bo‘ladilar[17].

Nutqda nutqiy birliklarni tanlay olishda amaliy ko‘nikmalar hosil bo‘ladi, lisoniy qoidalardan nutqda foydalanadi. Metodik adabiyotlarda kompetensiyaning uch jihatи ajratiladi: lingvistik; sotsiolingvistik; pragmatik kompetensiya [17]. “Birinchisida ijtimoiy munosabatlarning so‘z va morfologik shakllarni ishlatalishga ta’sirini bilgan holda muloqotda ishtirok etish layoqati tushuniladi. Pragmatik kompetensiya nutqning emotsiyonal-hissiy tomonini anglatib, tabiatan lingvistik va nutqiy layoqatning yuqori darjasи hisoblanadi.

“Ma’lumki, tinglab tushunish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Boisi so‘zlovchining radio, magnitofon, televidenie orqali yoki muloqot paytida ifodalagan nutqini tinglovchi tezda qabul qilib, mazmunini tushunib, xotirada saqlab qolishi lozim. Bunday nutqni qaytadan o‘qib olish uchun imkon bo‘lmaydi. Tinglab tushunish gapirish bilan uzviy bog‘liq. Tinglab tushunish ko‘nikmasi egallangan bo‘lsa, o‘quvchida gapirish ko‘nikmasi ham yaxshi rivojlanadi” [19].

Tinglab tushunish jarayoni o‘quvchidan diqqatni jamlash, e’tibor bilan eshitish, tinglangan matnni qayta gapirish uchun eshitish me’yorlariga amal qilgan holda ma’lumot mazmunini anglash hamda to‘g‘ri xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalar rivoji bilan va inson xotirasi bog‘liq.

SHuningdek, tinglab tushunish ko‘nikmasi og‘zaki nutq takomilida katta ahamiyatiga ega.

“O‘quvchilar oldiga gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv malakalarini hosil kilishdan iborat zamonaviy vazifalar qo‘yish, o‘quv dasturlari va darsliklar tuzilib ta’lim jarayoniga tatbiq etish nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muhim omildir. Bu davrda tinglab tushunishni o‘rgatish masalalari ilk bor tadqiq qilindi. Nutq namunalari asosida gapirishni o‘rgatish maqsadga muvofiq deb topildi” [10]. Hozirgi kunda o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, amaldagi o‘quv dasturi va 2017-2020-o‘quv yillari mazmun va shakl jihatdan yangi tuzilgan o‘quv dasturlari va “Ona tili” darsliklari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, 10-sinf “Ona tili” [21] darsligida nutq uslublari turlariga oid nazariy ma’lumotlar, avvalo, matndan ko‘k rang bilan ajratib yozilgan so‘zlarni qaysi uslubga aloqadorligini aniqlash, keyingi mashqda esa matndagi ajratilgan so‘zlarni nutq uslublari bo‘yicha kitobiy, betaraf, so‘zlashuvga guruhlash, testda nutq uslublari turlariga xos kichik matnlarning aralash berilganini topish, o‘quvchilarning matnga so‘zlarni tanlab qo‘llash, matn turlarini tuzishni o‘rgatadi. O‘quvchilar dastavval ma’lumotlarni tinglab tushunish va o‘qish orqali bilib oladilar. Ularda ma’lumotlar zahirasi paydo bo‘lgandan keyin berilgan ma’lumotni qayta gapirib, yozma nutqida ifodalay oladi. Bu jarayonlar bir-biri bilan bog‘liq ravishda ma’lum vaqt davomida rivojlanadi.

R.Yo‘ldoshevning fikricha, ”... gapirish birinchi navbatda so‘zlarni va ularning talaffuzini bilish, fikr bayon qilish chog‘ida kerakli so‘zni xotiraga keltirib, grammatik jihatdan shakllantirish, hosil bo‘lgan so‘z shakli taqozo etgan navbatdagi so‘zni xotiraga keltirish, uni ham grammatik jihatdan shakllantirish, shu tariqa ongda yuzaga keladigan sintagmani aytishning cheksiz zanjiri sodir bo‘ladi” [8]. Bu jarayon og‘zaki nutq rivojlanishi emas, balki yozish ko‘nikmalari rivojida ko‘proq namoyon bo‘ladi. CHunki o‘quvchilar so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishidagi diksiya va intonatsiyaga etarlicha e’tibor bermaydi va gaplarni grammatik jihatdan shakllantirmaydi, ularning ko‘pgina jumlalari, tez fursatda vujudga keladi, ayniqsa, matn yozish jarayonida grammatik jihatdan shakllantirishga ma’lum vaqt beriladi, albatta, xatosiz gapirish talab qilinadi.

O.B.Sirotnina “Nutq madaniyati – har qanday kommunikativ vaziyatda, eng avvalo, xatosiz gapirishni anglatadi, to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash madaniyat belgisi sifatida tan olinmoqda” [15] deb ta’kidlaydi. Ona tili darslarida xatosiz gapirish, to‘g‘ri so‘zlash, fikrlash muayyan muddat davomida rivojlantirib borilgan gapirish va so‘zlash ko‘nikmalariga bog‘liq jarayon. Egallangan bilimlar qatorida hayotiy tajribalarga asoslanilgan nazmda va nasrda yozilgan paremikalarning muhim aspektlari xatosiz so‘zlash va gapirishda o‘z aksini topadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining aqliga etkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, “nihoyatda chiroyli lirk tasvirlar bilan ehtiyyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o’shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo‘yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo‘y mijozingiz bo‘lib qoladi” [13]. Tinglovchiga chiroyli tasvirlar bilan tushuntirish suhbat jarayonining motivatsiya berishi bilan qiziqligi o‘ziga tortadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjati. – T.: 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.:, 2010. –213 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axlok. –T.: 1992. – 9-b.
4. Amirov R. Osobennosti sintaksisa kazaxskoy razgovornoy rechi. – Alma-Ata, 1972. – S. 6.
5. Bakieva H.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.nom. diss. –T.: 2019. –144b.
6. Daliboeva SH.T. Kompetensiyaviy yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish omili sifatida. NamDU ilmiy axborotnomasi.2020.1-son.-344b
7. Jinkin N.I. Rech kak provodnik informatsii. – M.: Nauka, 1982. –159 s.
8. Yo‘ldoshev R.A. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi (Ta’lim rus tilida olib boriladigan mакtablar misolida). – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 216 b.
9. Kalshanskiy G.V. Ot predlojeniya k tekstu //Sищност, razvitie i funktsii yazyika. – M.: Nauka, 1987. S 67
10. Lyaxovitskiy M.V. Metodika prepodavaniya inostrannых языков. – M.: 1981. – S. 98.
11. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlangich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi Ped. fan. dok. (PhD) diss.... . –T.: 2018. –163b.
12. Narzieva N. Formirovanie issledovatel’skix kompetensiya u uchashchixsyu na osnove integrativnogo podxoda// XV Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. World science:problems and innovations. Msns» Nauka i prosveschenie». 30 noyabrya 2017. Penza, 2017. CHast 3. -S. 156-158.
13. Razumova L., SHarov V. Lektor nutqining ta’sirchanligi. – T.: 1973. – 21.b.
14. Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarda). Ped. fan. nom. ...dis. avtoref. –T., 2019. – 11-b.

15. Sirotnina O.B.Ustnaya rech i tipy rechevых kultur. //Rusistika segodnya. -M.: 1995. -Выр 4, S.3-21
16. Toshxo‘jaeva D. Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari: Ped. fan. nom. ...dis. – Toshkent, 2000. –130 b.
17. Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari T.:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2015. – 160 b
18. SHatilov S.F.Metodika obucheniya nemetskogo yazыku v sredney shkole.-M.,1986. – 43S.
19. YUsupova SH.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan doktori ... diss.- Toshkent: TDPI, 2005. –279 b
20. YUldasheva SH.SH. Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nom. diss. –T.: 2008. –29 b.
21. G‘ulomov A. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2012.- 380 b.
22. Hamraev G‘.H. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’mintonini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) diss.... – Samarqand: 2019. – 56 b.
23. Qurbonova O.B. 10-11-sinf Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) diss.... – Toshkent: 2021